XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 16-oktabr VII-19-109-7-93-K/25 Bulung‘ur tumani

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Bulung‘ur tumanidagi ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil -16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori va Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan Bulung‘ur tumanidagi jami 16 ta ya’ni 2 ta asosiy ko‘cha, 9 ta berk ko‘cha hamda 5 ta tor ko‘chalarning nomlari o‘rganilib chiqilib, 2025-yil 16-sentabrdagi 03/08-10388-sonli xatiga asosan ijobiy xulosa berildi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining ____ sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Bulung‘ur tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi G‘.Shamanovning Bulung‘ur tumanida ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 16-sentabrdagi 03/08-10388-sonli xulosa xatiga asosan Bulung‘ur tumanidagi jami 16 ta ya’ni 2 ta asosiy ko‘cha, 9 ta berk ko‘cha hamda 5 ta tor ko‘chalarning nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi G‘.Shamanov, tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Yusupov, O.Sattarov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (J.Razoqov) hamda tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig‘inlarida ko‘cha nomlari aks ettirilgan peshlavhalarni 1 oy muddatda belgilangan tartibda o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman statistka bo‘limi (S.Turdiyev), O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiligining davlat kadastrlari palatasi Samarqand viloyat boshqarmasi Bulung‘ur tuman filiali (Sh.Abduqodirov), tuman Ichki ishlar bo‘limi (J.Saidov), tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (D.Djabbarov), tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi (F.Fayzullayev)larga yangi va qayta nomlangan ko‘chalarning nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish vazifasi yuklatilsin.

5. Qaror ijrosini ta’minlash uchun tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi G‘.Shamanov hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Yusupov, O.Sattarov)lar mas’ul etib belgilansin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Ta’lim, so‘g‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Mamatkulov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ASTONOV SAMANDAR MUSTAFOKULOVICH

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani Kengashining
2025-yil 16-oktabrdagi
VII-19-109-7-93-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan tumandagi nomsiz ko‘chalarga berilgan nomlar
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi (X,Y)		Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining izohi	Ekspert komissiyasining xulosasi
		Boshlang‘ich	Oxirgi					
1.	Tor ko‘cha	67° 14' 53,502" E 39° 36' 42,339" N	67° 14’ 45,120" E 39° 36’ 46,876" N	Elobod mahallasi	Nomsiz	Abu Abdullo Rudakiy-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Tor ko‘cha	67° 14'51,631" E 39° 36’ 39,606" N	67° 14’ 42,988" E 39° 36' 44,311" N	Elobod mahallasi	Nomsiz	Abu Abdullo Rudakiy-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Tor ko'cha	67° 17' 11,131" E 39° 43' 30,845" N	67° 17' 27.943" E 39° 43' 39,283" N	Istiqlol mahallasi	Nomsiz	Beshchinor	Xaritada geografik obyektning turi to’g'ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Berk ko‘cha	67° 23' 55,513" E 39° 42' 15,959" N	67° 23'51,440" E 39° 42' 29,544" N	Elobod mahallasi	Nomsiz	Dilxiroj-7	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

5.	Tor ko‘cha	67° 16'38,348" E 39° 45' 14,673" N	67° 16' 45,575" E 39° 45’ 16,773" N	Sahovat mahallasi	Nomsiz	Guliston	Xaritada geografik obyektning turi to‘g'ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Berk ko‘cha	67° 15’ 26,499" E 39° 45' 32,059" N	67° 15’ 24,545" E 39° 45' 25,162" N	Amir Temur mahallasi	Nomsiz	Mevazor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g'ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Ko‘cha	67° 19'36,198" E 39° 38' 40,239" N	67° 20' 46,187" E 39° 38' 26,431" N	Suluvqo‘rg‘on, Kichik Kildon, Xo‘jabachcha mahallalari	Nomsiz	Mo‘jiza	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Berk ko‘cha	67° 19' 52,371" E 39° 38' 30,518" N	67° 19'51,943" E 39° 38' 40,283" N	Suluvqo‘rg‘on mahallasi	Nomsiz	Mo‘jiza	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Berk ko‘cha	67° 18' 13,339" E 39° 36’ 30,328" N	67° 18' 4,634" E 39° 36' 35,334" N	Sahovat mahallasi	Nomsiz	Oboddiyor-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Berk ko‘cha	67° 18’ 7,899" E 39° 36'28,113" N	67° 18' 9,727" E 39° 36' 22,605" N	Bulung‘urariq mahallasi	Nomsiz	Oboddiyor-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Tor ko‘cha	67° 14’ 13,222" E 39° 47’ 1,019" N	67° 14' 22,407" E 39° 47' 3,245" N	Yangiobod mahallasi	Nomsiz	Oriyat	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Berk ko‘cha	67° 16’ 18,628" E 39° 36' 49,143" N	67° 16' 13.751" E 39° 36' 54,200" N	Dehqonobod mahallasi	Nomsiz	Shahriston	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

13.	Berk ko‘cha	67° 19' 7.547ᴍ E 39° 40’ 5,556" N	67° 18' 59,787" E 39° 40' 4.808" N	Beshkuvi mahallasi	Nomsiz	Xonchorbog‘-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	Berk ko‘cha	67° 19' 10,677" E 39° 40'3,281" N	67° 19' 8,577" E 39° 40' 0,251 "N	Beshkuvi mahallasi	Nomsiz	Xonchorbog‘-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
15.	Berk ko‘cha	67° 18' 11,540" E 39° 45' 55,852"N	67° 18’ 8,326" E 39° 45' 58,243" N	Olmazor mahallasi	Nomsiz	Yangizamon	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Ko‘cha	67° 15'48,278" E 39° 45' 35,552" N	67° 15’57,228" E 39° 45' 20,430" N	Bulung‘ur, Amir Temur mahallalari	Nomsiz	Zafarobod	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.